

“SADOYI FARG‘ONA” GAZETASIDA NASHR ETILGAN ADABIY- MA’RIFIY MAQOLALAR TAHLILI

Abdurashidova Sevinch Alisher qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarix va filologiya” fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: abdurashidovasevinch227@gmail.com 93.188.03.45

Ilmiy rahbar: Abdulxayrov Manzar Xusanovich

Annotatsiya

“Sadoyi Farg‘ona” gazetasidan keng o‘rin olgan ma’lumotlarni xalqimizga yetkazish bugungi kun uchun juda muhim hisoblanadi. Bu esa o‘zbek adabiyotshunosligi oldida hali ko‘p vazifalar mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining yaratilishi, ahamiyati, sahifalardan joy olgan maqolalarning xususiyatlari, shuningdek, Turkiston xalqiga qolaversa, o‘zbek adabiyotiga qanday ta’sir qilganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *“Sadoyi Farg‘ona”, gazeta, jurnal, maqola, matbuot, tahlil, jurnalistika, publisistika.*

Аннотация

На сегодняшний день очень важно донести до нашего народа информацию из газеты “Садой Фергана”. А это говорит о том, что перед узбекской литературой еще много задач. В этой статье рассказывается о создании газеты “Садой Фергана”, ее значении, особенностях статей, размещенных на страницах, а также о том, как она повлияла на узбекскую литературу, не говоря уже о народе Туркестана.

Ключевые слова: *Садой Фергана, газета, журнал, статья, пресса, анализ, журналистика, публицистика.*

Annotation

The dissemination of information from “Sadoyi Fergana” newspaper to our people is considered very important for today. This suggests that there are still many tasks before Uzbek literary studies. This article describes the creation, importance of the newspaper “Sadoyi Fergana”, the features of the articles from the pages, as well as how it influenced the Turkistan people in addition to the Uzbek literature.

Key words: *“Sadoyi Fergana”, newspaper, magazine, article, Press, Analysis, Journalism, publicistics.*

“Sadoyi Farg‘ona” gazetasi Farg‘ona viloyatida chiqqan ilk milliy gazetadir. Muharrir va noshiri – tog‘-ko‘n mutaxassisligi bo‘yicha muhandis Obidjon Mahmudov (o‘z davrida laqabi Obid Chatoq bo‘lgan). Gazeta Qo‘qondagi O. Mahmudovning o‘z

xususiy matbaasida bosilgan. 1-soni hijriy 1332-yilning 22- jimodulavvali, milodiy 1914-yilning 3-aprelida chop etilgan. Adadi 1500 – 1700 nusxa atrofida bo‘lgan. Uning maqsad va maslagi ilk sonida muharrir tomonidan quyidagicha belgilanadi: “G‘azetani nashrdan maqsadimiz albatta tijorat emas, balki xalqimizg‘a qo‘limizdan kelgan qadar xizmat etmakdir”. Ta’kidlash joizki, gazetada ishtirok etish ancha demokratik tamoyillar asosida belgilangan. “Arbobi qalam va ashofi irfon uchun, – deyiladi bosh maqolada, – g‘azetamizning sutunlari har zamon ochiq bo‘lub, maslakimizga muvofiq bo‘lg‘on har bir maktub darj o‘linajakdir... Dardimiz – bir, kasalimiz ham – bir, davo va darmonimiz ham birdur. Bas, andog‘ bo‘lsa, ey himmatlik birodarlar, chiqinglar maydong‘a, yozayluk, o‘quyluk! Chunki dardlarimizning davoi shofiysi yolg‘iz o‘qumoq va yozmoqdur”. “Sadoyi Farg‘ona”ning 1-sonida Ashurali Zohiriyning “So‘z boshi” sarlavhali maqolasi bosilgan bo‘lib, unda ham gazetaning vazifalari, tili kabi jihatlariga aniqlik kiritilgan. “Biz Russiyadagi musulmonlar o‘rtasida o‘rtoq (mushtarak) bir til bilan bormoq yo‘llari necha yillardan beri muzokara va mushovara qilinmoqda bo‘lsa ham, hozirg‘acha bir qarorg‘a kelingon yo‘qdir... Biz ham shul yo‘l bilan borib mahalliy shevada (*o‘zbek tilida*) shul g‘azetani chiqarmoqina azmi himmat etdik”. Muallif gazetani timsolli tarzda xom mevalarni pishirib, shirin-sharbat maza ato etuvchi oftobga, odamzodni yomon yo‘llardan qaytarishga da’vat etuvchi notiqqa, turli illat va kasalliklardan shifolovchi hakimi hoziqqa, “ulum va funundan, inson olamidan, hayvon olamidan, ilmi huquqdan, me’morlikdan, tayyorlik (*qush, ya’ni uchish*)dan ma’lumotlar berib, insoni komil” qiluvchi dorilfununga qiyoslaydi.

Obidjon Mahmudov gazetaning ikkinchi sonida “G‘azeta nadur va na uchun lozim” degan maqolani e’lon qilgan. Aftidan, u “Sadoyi Farg‘ona”ning 1-sonidagi “Maslak va maqsad” dasturiy xarakterdagi maqolasida matbuot to‘g‘risida bildirgan fikrlaridan qoniqmagan shekilli, uni yana to‘ldirgan. U gazetaga shunday ta’rif beradi: “G‘azeta butun dunyodagi madaniy millatlarning tirikchilik yo‘llari, olamdagi darajalari va ham olami insoniyat eng taraqqii taolosi (*taraqqiysining eng yuqorisi*) uchun lozim bo‘lg‘on sa’y va harakatlari to‘g‘risida bir-birlari birlan mudovalai afkor (maslahatlashmoq va kengashmoq) uchun lozim bo‘lg‘on bir vositadur”. Bunda u insonlarning turli masofalardan turib o‘zaro fikr almashishlari uchun matbuot vujudga keltiradigan imkoniyatni alohida ta’kidlagan.

Birinchi sonda muharririyat gazetani “mahalliy sheva (bir xalq tili)da chiqarmoq eng birinchi maqsadimiz bo‘lsa ham, bul birinchi numeramiz ul maqsadg‘a muvofiq suratda bo‘lub chiqmadi”, deya mushtariylardan uzr so‘ragan. Bu fakt muharririyatning avvalboshdanoq gazeta tiliga jiddiy e’tibor bilan qaraganidan dalolatdir.

“Sadoyi Farg‘ona”ning 3-sonida Ashurali Zohiriyning “Ona tili” sarlavhali maqolasi bosilgan bo‘lib, unda milliy tilning boyishi va ravnaq topishida matbuotning ahamiyatiga shunday baho berilgan: “... g‘azeta va jurnallarning dunyo ahvolidan va

boshqa to'g'rilaridan xalqga xabar berub turmog'idan boshqa ulug' va ko'zg'a ko'rinmaydurg'on bir foydasi bo'lurki, ul ona tilining kengaymog'i va mukammallashmog'idur".¹

"Sadoyi Farg'ona"ning 67-sonida "Ayn" imzoli shaxsning "O'qumagonlikning nima zarari bor?" sarlavhali maqolasida xat-savodi yo'q kishilarning qarindoshlariga oddiy maktub yozdirish uchun ovorai sarson bo'lishlari misolida o'qishning foydasi isbot qilinadi.

Hamzaning "Maktabi "dor ul-aytom", yangi yetimlar maktabi" sarlavhali maqolasida esa (60-son), ota-onasi yo'q, ko'cha-ko'yda qolgan bolalarni o'qitish masalasi ko'tarilgan.

Said Ahmad Vasliyning "Madaniyat" sarlavhali maqolalar turkumi "Sadoyi Farg'ona"ning yetti sonida bosildi. Muallif "madaniyat" atamasi bilan madaniyatdan kengroq tushunchani, aniqrog'i, sivilizatsiyani nazarda tutgan. Insonlarning iqtisodiy-maishiy hayot, tijorat ishlari, dehqonchilik va shu kabi sohalaridagi faoliyatini "madaniyat" degan tushunchadan kelib chiqib izohlaydi. Taassufki, uning bu boradagi tushunchalari o'sha davrda Yevropa mamlakatlarida erishilgan saviyadan ancha past, jo'nroq xususiyatga ega edi. Farg'ona vodiysining asosiy xo'jalik sohasi dehqonchilik, xususan paxtachilik, ipakchilik bo'lgani uchun ushbu mavzular gazetada kengroq yoritildi. Shunisi borki, mazkur mavzularda milliy matbuotimizda ilk marta jurnalistik tekshiruv janriga murojaat qilindi.

Yosh qalamkash Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon)ning "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik" maqolasi ham mavzuning mohiyatiga kirish nuqtai nazaridan jurnalist surishtiruviga o'xshaydi. Gazetaning 1914-yilgi 30-aprel sonida bosilgan birinchi qismi maktub shaklida. Unda Turkiston yerlari paxtadan mo'l hosil olish uchun nihoyatda qulay bo'lishiga qaramay, ko'ngildagidek hosil olinmayotgani sababli dehqonlarimizning biri ikki bo'lmayotgani, paxtachilikda texnikadan foydalanilmayotgani haqida so'z yuritilib, muallif buning sababini o'rganaylik, matbuotda yozaylik deya yoshlarga murojaat qiladi. Maktub muallifini hayratga tushirgan narsa: "...amriqoliklar ekin asboblari ishlatub, biz 10 kishi 10 kunda qilg'on ishimizni onlar 2 kishi bilan 10 soatda qilmoqdadir. Onlarda o'rish, chochish, chopish, terish, ekish – hammasi oson, olot (moshina) bilan tez tayyor bo'ladir. Onlar o'shal moshina bilan vaqtinda tez yig'ushturub oladurlar. Biz bo'lsak, yerimizni to'plab tashiguncha yamg'ur, qor yog'ub qolsa, dalada tamom qoldiramiz". Muallifning yozishicha, bunday mashinalar Rossiyada ham bor. Nega dehqonlarimiz mashinalardan foydalanmay, o'zlarini mashaqqatga qo'yadilar?²

¹Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 128.

²Usmonova S. "Jadidchilik va adabiy muhit xususida" FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2024. – B. 292.

Oradan 7 kun o'tgach, ushbu maktubning davomi maqola tarzida gazetaning 1914-yilgi 7-may sonida bosilgan. Muallif maktubi gazetada e'lon qilingach, qishloqlarga chiqib dehqonlar bilan gaplashdim, deb yozadi, ko'z oldimda tasavvurimdan butunlay boshqacha manzara paydo bo'ldi. Uni dehqonlarning hayratga solgan javobi mana shunday: "Paxta eksak g'o'zapoyasig'acha, bug'doy eksak samonig'acha qarzimiz badalig'a xo'jayinlarimiz boylarg'a olub borub beramiz. Yana ikkinchi ekinga (keyingi yil hosilidan) beradurg'on bo'lub boylardan pul olub qish ichi bola-chaqalarimiz ila ming mashaqqat va ming qiyinlik ila avqot (vaqt) o'tkaramiz. Qish chiqqondan keyin bola-chaqalarimiz ila ishga tushamiz, bolalarimiz o'qushdan qoladurlar, mardikor olsak, yana sarf ziyoda bo'ladur, pul yo'q. Noiloj, bolalarimizning maktabdan qolishiga rizo bo'lub bo'lsa ham, bolalarimizni dalaga olub chiqub qo'sh haydash, g'o'za chopish, chigit tikish, shunga o'xshash qiyin ishlarga qo'yamiz, chigitga pul deb borsak, xo'jayinlar so'kub, har turli haqoratlar ila yig'in-terin vaqtida 100 so'm qilub berishga 40– 50 so'm pul beradurlar. Ikkinchi, oni olub chiqub bir kun ham qishloqda havlimizda saqlay olmaymiz. Yana bu ahvolni ustiga, birar to'y-mo'y bo'lub qolsa, tamom och-yalang'och, yer-suvlarimiz boylar qo'linda, ko'chalarda tilanchi-gado bo'lub qolurmiz, qani munga chora?" Cho'lpon dehqonlarning bu gapini eshitgan kishining "ko'zlaridan tamom qonlik yoshlar to'kmoqg'a to'g'ri keladir", deya xulosalaydi o'z fikrini.

Shunday qilib, "Sadoyi Farg'ona" gazetasi ham Birinchi jahon urushi voqealarini imkoni darajasida yoritib borgan. Xalqaro ahvol masalalarini turli gazetalardan iqtibos olgan holda, Peterburg (1914-yil iyuldan boshlab Petrograd) telegraf agentligining xabarlariga tayangan holda yoritgan. Urush boshlanganidan ko'p o'tmay, "Sadoyi Farg'ona" harbiy senzura nazoratidan o'tadigan bo'ladi. Shu bois uning ayrim sonlarida ochiq (bo'sh) joylar mavjud. Bular, shubhasiz, harbiy senzura tomonidan olib tashlangan materiallarning o'rnidir.

Gazeta o'z davridagi nashrlar bilan ijodiy munosabatda bo'lgan. Unda "Vaqt", "Iqbol", "Tarjimon", "Ferganskoye exo" gazetalaridan olingan iqtiboslar, "Sho'ro", "Oyina" jurnallari materiallariga bildirilgan munosabatlar talaygina uchraydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyina" jurnalida "sart" so'zi munosabati bilan yozgan maqolasi "Sadoyi Farg'ona"da din va dunyomizga foydasiz narsa, deb kamsitilgan (mulla Abdullabek Musobek o'g'lining 29 va 30-sonlardagi maqolasi). Demak, gazetaning ijodiy xodimlari Behbudiyning hazratlarining o'zbeklarni mustabidlar ataylab "sart" atab haqorat qilib kelayotganiga qarshi ichki isyonini ilg'ashmagan. N.Ostroumov muharrirlik qilayotgan "TVG" nasorolarning ibodatxonasini butxona deb ishlatdi, degan bahona bilan "Sadoyi Turkiston"ga qilgan hujumi paytida esa "Sadoyi Farg'ona" milliy gazetamizni himoya qila oldi. Umuman olganda, "Sadoyi Farg'ona" gazetasi o'z davrining siyosiy- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, maishiy muammolarini dadil ko'tara olgan nashr sifatida o'zbek

jurnalistikasi tarixidan munosib o‘rin egallashga haqli gazeta hisoblanadi. Uning oxirgi – 123-soni 1915-yilning 6-iyunida chiqqan. (Gazetaning to‘xtash sababini muharriri O. Mahmudov “ba’zi muomalot, olam necha xil mone’liklar” deb atagan.) “Sadoyi Farg‘ona”ning 1914-yil 17-iyuldan ruscha varianti “Ferganskoye exo” ham chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi ham maktab va maorif mavzusini ancha mufassal yoritdi. Ayni paytda, jaholatni, shuningdek, o‘z umrini tugatgan, zarar keltirayotgan rasm-rusum va bad’atlarni (ortiqcha sarf-xarajatlar bilan to‘ylar qilish, to‘ylarda juvonlarni o‘ynatib bazm uyushtirish, bedanabozlik, kaklikbozlik, xo‘roz urishtirish qartabozlik, qimor o‘ynash va h.k.) tugatish, ularga sarflanadigan mablag‘larni millat bolalarining o‘qishi uchun ishlatish kabi masalalarni keng yoritdi. “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida chop etilgan adabiy-ma’rifiy maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu nashr o‘z mintaqasining madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi. Maqolalarda milliy qadriyatlar, tarixiy meros, zamonaviy adabiyot hamda ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Gazeta sahifalarida yoritilgan fikrlar yosh avlodni tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish hamda o‘quvchilarni mustahkam ma’naviy asoslar bilan qurollantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, mashhur adiblar hayoti va ijodiga oid maqolalar, zamonaviy ijodkorlar faoliyatiga berilgan baholar, folklor namunalarining tahlili orqali milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan targ‘ibotlar samarali tarzda olib borilgan. Shu bois “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining adabiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi faoliyati respublikamizda madaniy-ma’naviy muhitni yuksaltirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – B. 128.
2. Abduazizova N. Turkiston ma’buoti tarixi. T: Akademiya, 2000. – B. 166.
3. Solijonov Y. “Farg‘ona adiblari” – Namangan, 2015.
4. Nishanov Y. “Umuminsoniy g‘oyalar ifodasida ijodiy ta’sirning o‘rni” FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2024.– B.153.
5. Usmonova S. “Jadidchilik va adabiy muhit xususida” FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2024.– B. 292.